https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Sayfiddinova Gulnoza Ulug‘bek qizi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
mehrsabriya.@gmail.com

QO‘QON ADABIY MUHITIDAGI AYRIM TURKUM SHE’RLARNING JANRIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan ayrim turkum she’rlarning janriy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ijod qilgan shoirlarning turkum she’rlari tahlilga tortilgan. Adabiy muhitda yozilgan she’rlarning janriy xususiyalari haqida mulohazalar bildirilgan. Davr she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari, turkum she’rlarning paydo bo‘lishi, ijodkorning mavzuga individual yondashuvi kabi masalalar ham yoritib berilgan. Milliy uyg‘onish davrida yangilangan janrlar, ularning kelib chiqishi, takomillashuvi va turkum she’rlarning janrlari xususida so‘z boradi. Bir yoki turli janrlarda yaratilgan she’riy turkumlar asosli ravishda tahlilga tortilgan. Ularning janr xususiyatlari haqida ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy uyg‘onish, adabiy muhit, turkum she’rlar, janr, g‘azal, murabba, muxammas, musaddas, fard, tuyuq, ruboiy, she’riyat.

Abstract: This article discusses the genre characteristics of some series of poems created in the Kokand literary environment of the period of national revival. Series of poems by poets who worked in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century are analyzed. Comments are made on the genre characteristics of poems written in the literary environment. Issues such as the specific features of the poetry of the period, the emergence of series of poems, and the individual approach of the creator to the subject are also covered. The genres renewed during the period of national revival, their origin, improvement, and the genres of series of poems are discussed. Poetic series created in one or different

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

genres are analyzed in a reasonable way. Scientific conclusions are made about their genre characteristics.

Keywords: National awakening, literary environment, series of poems, genre, ghazal, murabba, muhammas, musaddas, fard, tuyuk, rubai, poetry.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жанровые характеристики некоторых циклов стихов, созданных в литературной среде Коканда в период национального возрождения. Анализируются циклы стихов поэтов, работавших во второй половине XIX века и начале XX века. Приводятся комментарии к жанровым характеристикам стихов, написанных в данной литературной среде. Также рассматриваются такие вопросы, как специфические особенности поэзии того периода, возникновение циклов стихов и индивидуальный подход автора к теме. Обсуждаются жанры, возрожденные в период национального возрождения, их происхождение, развитие и жанры циклов стихов. Поэтические циклы, созданные в одном или нескольких жанрах, анализируются обоснованным образом. Делаются научные выводы об их жанровых характеристиках.

Ключевые слова: национальное пробуждение, литературная среда, циклы стихов, жанр, газель, мурабба, мухамма, мусаддас, фард, туюк, рубаи, поэзия.

Kirish Janr adabiyotning ajralmas bir bo‘lagidir. Bu atama xususida Baxtin quyidagicha fikrga keladi: “Janr adabiyot rivojidagi har bir bosqichda va shu janrga xos asarda qayta tug‘ilib yangilanadi. Janr bugungi kun bilan yashaydi, ammo ibtidosini o‘tmishini esida tutadi. U adabiyot rivoji jarayonida ijodiy xotiraning vakilidir. Shu bois janr adabiyot taraqqiyotidagi yaxlitlik va uzviylikni ta’minlashga qodir”[2.] Bizga ma’lumki janr tarixiy kategoriya sifatida qaysi davr adabiyotida bo‘lmasin, har bir yozuvchi asarida adabiy jarayon bilan uzviy bog‘langan holda, o‘zining avvalgi xususiyatlarini saqlab qolgan holda mazmunan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yangilanadi. Shu sababli ham ma’lum bir janr namunalarini tadqiq etish adabiyotimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi. Ma’rifatparvarlik davrida asosan she’riyat yetakchilik qildi. Keyingi davrlarda yaratilgan dramatik asarlar va badiiy proza bu davr adabiyotida uchramaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada adabiyotshunoslikning azaliy muammolaridan biri turkum she’rlar tabiatiga xos jihatlar muhokama qilinadi. Uning kelib chiqishi va XIX asr oxiri XX sr boshlaridagi voqelanishiga oid jihatlar tavsiflanadi. Tahlil jarayonida formal(shakliy), komparativ(qiyoslash) metodlardan foydalanildi. Oliy ta’limda she’riy turkumlar atamasiga yondashuv me`yorlari nazariyasi tahlillar yordamida asoslandi.

Tahlillar va natijalar. Har bir adabiy davrni boshqalardan ajratib turuvchi alohida bir jihati mavjud. Biz o‘rganayotgan milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘ziga xosliklar olimlar tomonidan atroflicha talqin etilgan. Adabiyotshunos G‘.Karimov bu davr shoirlari ko‘proq she’riyatning kichik turlarida asarlar yozganligi haqida to‘xtalib, buning o‘ziga xos tarixiy sabablari bo‘lganligini, ulardan eng muhimi mumtoz adabiyotimizda she’riyatga alohida urg‘u berilganligida deb biladi. Shuning uchun ham ma’rifatparvar shoirlar uchun ayni sohadagi an’analarni davom ettirish qulay bo‘lganligi haqida yozadi[1,58]. Lekin, bizga ma’lumki, bu davr ijodkorlari adabiyotshunoslikda yangi janrlarni ham yaratishga muvaffaq bo‘ldilar. Muqimiyning sayohatnoma janriga asos solgani, maktub janrining shakliy va mazmuniy jihatdan yangilanganligi buning yorqin dalilidir. Davr qalamkashlari she’riyatning g‘azal, muxammas, murabba, musaddas, fard, tuyuq va ruboiy janrlarida barakali ijod qildilar. Shu asnosida mumtoz janr an’analarini davom ettirdilar. Adabiyotshunos A. Hayitmetov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Har qanday adabiy janr o‘zida ilgarigi qalamkashlarni adabiy tajribasini to‘plagan bo‘lib, janr sohasidagi bu tajribadan har qanday ijodkor o‘z qobiliyati va maqsadidan kelib chiqib o‘zicha foydalana oladi”[4, 34]. Bu xususida tadqiqotchi D. Abdullayeva o‘zining “Usmonxo‘ja Zoriy hayoti va ijodi” nomli

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “XIX asr ikkinchi yarmidagi adabiy hayotda badiiy shakl va mazmun taraqqiyot yo‘lidan bordi, o‘tmish adabiyot an’analari o‘ziga xos davom ettirildi. Adabiy turlardan lirikaning g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy, murabba janrlari yetakchilik qildi. Mumtoz she’riyatimiz shakllaridan foydalangan shoirlar bu janrlar mazmuni, xarakteri vazifasini o‘zgartirib bordilar”[5, 34]. Shu asnosida she’riyatning vazn, qofiya va badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalanib kelganlar. Va bu shakllarning yanada takomillashuviga hissa qo‘shganlar. Bu davr she’riyatidagi yana bir muhim jihat shundan iboratki, she’riy turlarning shakli saqlanib qolgan bo‘lsada, Muqimiy, Furqat, Zavqiy asarlaridagi mazmun, uning asosi, mohiyati yangilanishga uchragan edi. Avvalgi davrlarda yaratilgan g‘azallar bilan ma’rifatparvarlik davridagi g‘azallar garchi shakl jihatidan(vazn, qofiya,radif) bir-biriga o‘xshab ketsada, bu she’rlarning mavzu ko‘lami, ularda ifodalanayotgan asosiy g‘oya tamoman yangicha qarashlarga boy edi. Shuning uchun ham alohida ta’kidlashimiz mumkinki, jadidchilik davri adabiyotining tamal toshi XIX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan shoirlar tomonidan o‘rnatilgan. Hanuzgacha oliy o‘quv yurti talabalari uchun muhim darslik vazifasini bajarib kelayotgan, mustaqillik davrlarida yaratilgan “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek dabiyoti” kitobida Professor B. Qosimov bu xususida quyidagicha fikrlarni bildiradi: “Milliy uyg‘onish, millatning o‘zligini anglash jarayoni mazkur adabiyotning ruhi va mazmunini tashkil qildi. Buni adabiyotshunoslik o‘tgan asrning 20-yillaridayoq e’tirof etgan edi”[6, 3].Adabiy janrlarning safiga yangi bir janr kelib qo‘shildiki, bu janr “Sayohatnoma” janri bo‘lib, uning asoschisi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir. Muqimiy ijodi juda ko‘p ijodkorlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, professor Q. Pardayev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida Muqimiy tomonidan yaratilgan turli janrlarga oid bo‘lgan she’rlar, hamda shu bilan birgalikda, sayohatnoma janrining to‘liq variantini birinchi marta ilm ahliga taqdim qildi. Biz tahlillarimizda asosan shu dissertatsiyada ilova qilib berilgan shoir ijodining yangi topilganva matnini qayta tiklashga muvaffaq bo‘lingan manbalariga to‘xtaldik. G‘azal va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muxammas janrlarida yozilgan she'rlari yangi matn tadqiqi orqali aniqlangan bo‘lib, ulardagi mazmun tahriri ham aniq manbalar asosida qayta ishlangan. Sayohatnomaning “Qo‘qondan Farg‘onaga”, “Qo‘qondan Shohimardonga”, “ Isfara sayohatidan” qismlaridagi ayrim misra va so‘zlar tahrir qilingan. Shu tariqa bandlar Muqimiy dastxat bayozining matni asosida qayta tiklangan[7, 290]. Furqatning ham “Sayohatnoma” yozgani ma'lum bo‘lib, lekin u haligacha topilmagan. Muqimiy “Sayohatnoma”si ta'sirida yozilgan Zavqiy “Sayohatnoma”larida o‘zbek qishloqlarining ahvoli, holati, unda yashovchi oddiy dehqonlarning hayoti aks ettiriladi. Masalan “Suv janjali”, “Yangi Qo‘rg‘on qishlog‘i” yoki “Shohimardon sayohati”(“Shohimardon xotirasi”) kabi qismlar shular jumlasidandir.

Bu ravzagakimki kelib,
Bir kechasi mehmon ekan.
Umrida bir ko‘rgan kishi,
O‘lganda bearmon ekan.

Zavqiyning “Shohimardon xotirasi” deb nomlangan sayohatnomasida Shohimardon tabiatini chiroyli ta'riflaydi. Uning suvi obi hayot ekanligini, umrida bir bora ko‘rgan insonning bu hayotdan bearmon o‘tishi haqida yozadi. 1888-yilda yozilgan bu she'rda Zavqiy Shohimardonda ko‘p turmaganligi haqida ma'lumot berib o‘tgan. Qo‘qon shoirlari ijodida turkum she'rlar yozish an'anaga aylanganligini “Sayohatnoma” janri turkumidagi balki, ijtimoiy-siyosiy hayotda ro‘y bergan hodisalar ham yoritilgan turli janrdagi she'rlar orqali ham bilishimiz mumkin.1902-yil 16-dekabr (ramazon oyining 14-kuni seshanba) ertalab soat 10^{00} da Andijonda ro‘y bergan kuchli zilzila davrning yana bir muhim voqealardan biri bo‘ldi. Shubhasiz yuz berayotgan voqealarga befarq bo‘lmagan ijodkorlar zilzila haqida she'rlar yozishdi. Ro‘y bergan tabiiy ofat davr shoirlarini, jumladan, Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zoriy kabi xalq dardida yonib ijod qiladiganlarni albatta loqayd qoldirmadi.Masalan, Turkiston viloyatining gazetasida o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri sanalgan Muhyining “Ho‘qandlik shoiri nomdor,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

sohibi iqtidor mavlono hoji Muhyi afandining Andijon shahri xususida dilso‘zona bayotlari” sarlavhali o‘n to‘qqiz banddan iborat bo‘lgan muxammasi bosilib chiqqan.[8,3] Qolaversa, Muqimiyning “Tarixi zilzilai Andijon” she’ri, o‘sha davrning yirik vakillaridan yana biri Zoriyning “Voqeai Andijon” nomli muxammasi azob-uqubatda qolgan xalqqa bo‘lgan xayrixohlik nashidasi bo‘lib yangragan. Ulardagi hodisa taassurotlarini berish turlicha bo‘lsada, mazmun voqeaning dahshatini to‘liq aks ettiradi. Muqimiy va Zoriy muxammasidan olingan ushbu jumlalar fikrimizni dalillaydi:

Qoldi tom ostida- bo‘ldi necha mo‘minlar halok,
Dod etib pir-u juvon, gahvorada atfoli pok,
Qiz ono o‘g‘li otoni furqatida dardnok,
Dog‘i farzandi bila ba’zi yuragi chok-chok,
Bu musibatlar ko‘pub, bag‘ri erur qon Andijon(18a).

Zoriyning bu muxammasi o‘n banddan iborat bo‘lib, unda shoir chinakamiga Andijon uchun qayg‘urganini ifoda qiladi. Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhiti qalamkashlarining Andijon zilzilasiga bag‘ishlangan turli janrlarda yozilgan she’rlari maydonga keldi. Muqimiyning ham bu mavzuga bag‘ishlangan “Tarixi zilzilai Andijon az Mavlono Muqimiy Xo‘qandiy” sarlavhali, g‘azal janrida yozilgan she’ri “Turkiston viloyati gazeti” ning 1903-yil 22-aprel sonida bosilib chiqqan. Va bu she’r yigirma yeti baytni tashkil etgan. Professor Q. Pardayevning doktorlik dissertatsiyasida Muqimiyning bu she’ri matni sovet davridagi Muqimiy asarlar to‘plamida o‘n to‘qqiz bayt holda nashr etilgani, sakkiz bayti tushirib qoldirilgani va adabiyotshunos R. Tojiboyevning “Adabiyot ko‘zgusi” ilmiy to‘plamining 2004-yil 8-sonida e’lon qilingan “Tarixi zilzilai Andijon she’rining to‘liq nusxasi” nomli maqolasida bu she’rning to‘liq varianti berilganligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.[7, 304] Filologiya fanlari nomzodi Abdullatif Turdialiyev tomonidan nashrga tayyorlangan, Muqimiy she’rlari jamlangan “Bog‘ aro” to‘plamida bu she’r to‘liq holda kiritilgan.[9, 218] Andijondagi kuchli

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

zilzila haqidagi she'rlar muxammas va g'azal deb atalgan lirik janrlarda yozilganligi, bu she'rlarning badiiy qimmatini yana bir pog'onaga ko'taradi. Ma'lumki, har qanday lirik janrning bir-biridanfarqli bo'lgan badiiy qonuniyatlari mavjud bo'lib, yozuvchi ana shu qonuniyatlarga bo'ysungan holda asar yaratadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari, usullari va albatta yo'li mavjuddir. Professor Ibrohim Haqqul "Qit'a va g'azal muhokamasiga doir" maqolasida "Har bir lirik janr voqelikni, inson fikr va his-tuyg'ularini o'z badiiy ifoda usullari hamda xarakteriga mos tarzda tasvirlaydi. Shuning uchun ularni mohiyat e'tibori bilan biri ikkinchisiga uncha o'xshash bo'lmagan, o'z-o'zicha tugal bir san'at olami"[10,6-son] deya ta'kidlagan. Andijon zilzilasiga bag'ishlab yozilgan she'rlardagi ma'no va mazmun uyg'un bo'lib, faqat bu she'rlar ikki janr imkoniyati orqali o'zining badiiy talqiniga erishgan desak, also mubolag'a bo'lmaydi. Chunki she'riy janrlar xilma-xilligi ulardagi mazmunga aslo ta'sir qilmagan. Shoirlar har ikki janrda ham o'zlarining bu voqedan qattiq qayg'urganliklarini izhor qiladilar.Shu tariqa Andijon zilzilasiga bag'ishlangan turli janrlarda xalqqa taqdim qilingan turkum she'rlar yuzaga keldi. Bizga ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda o'ziga xos tomonlari bilan boshqa janrlardan ajralib turuvchi"g'azal" shoirning butun salohiyatini ochiq ko'rsatib beruvchi asosiy janr hisoblangan. Klassik davr an'analarini munosib davom ettirgan shoirlar ijodida buning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin. Faqat juft misralarigina qofiyalanuvchi, birinchi baytini matla', oxirgi baytini maqta' deb ataluvchi, ko'p vaqt besh baytlidan o'n ikkinchi baytligacha yozilgan, har bayti nisbiy mustaqil, ayni holda hamma baytlari mantiqan va badiiyan bog'langan, oxirgi baytida taxallus keltiriladigan lirik janr g'azaldir[11,193]. Biz tadqiq etayotgan davrdagi har qaysi ijtimoiy-siyosiy ahvol shoirlar tomonidan yaratilgan barcha janrdagi she'rlarda o'z aksini topdi.Xususan g'azalchilikda ham demokratik qarashlar o'z aksini topdi. G'azallarda tasvirlangan timsollarning yagona pozitsiyada ekanligi, shoir ichki "men"ining ifodaviyligi, lirik qahramon kechinmalarining inja ekanligi, davr ruhi va kelajakka ishonch yorqin misralarda ifodalanganligi bilan, qolaversa ilg'or bo'lgan rus madaniyatini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

targ‘ib qilinganligi bilan boshqa davrda yaratilgan g‘azallardan ajralib turdi. Muqimiy, Zavqiy, Muhyi, Zoriy, Furqat ijodidagi muxammaslar ham o‘ziga xos bo‘lgan bir janrdagi turkum she’rlar yaratilishiga asos bo‘lgan. Muxammas adabiyotshunoslikda, xususan, mumtoz adabiyotimizda keng qo‘llangan she’riy shakllardan hisoblanadi. Muxammasning har bir misrasi besh banddan iborat bo‘lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a yoki a-a-a-a-a, b-b-b-a-a tarzida qofiyalanib keladi. Bu janr ijodkor uchun o‘zining his-tuyg‘ulari va kechinmalarini yanada chuqurroq va tushunarli ifodalashining bir vositasi hisoblangan. Muxammas qoidasiga muvofiq 1-band a-a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Bandda olon- zarkon-davron-farmon-davron so’zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan. Andijon so’zi esa radifdir. Asrlardan beri keng adabiy iste’molda bo‘lgan muxammasning ikki turi mavjud bo‘lib, ular “Tab’i xud” ya’ni mustaqil muxammaslar va “Tazmin” taxmis muxammaslardir. Muxammasning har ikkala turida barakali ijod etgan Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari muxammasning betakror namunalarini yaratganlar.

Muhokama va xulosa. An’anaga muvofiq muxammaslar bu davrda eng ko‘p murojaat qilingan adabiy shakllardn biri bo‘lib qoldi. Turkum she’rlarning asosan g‘azal, muxammas, musaddas, ta’rix va manzuma shakllarida berilishi ham ayni fikrimizning dalilidir. Ayni paytda mahoratli shoirlar tomonidan murojaat qilingan barcha janrlar oddiy xalq uchun soda va tushunarli she’rlarning tug‘ilishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Aytish mumkinki, ushbu davrda Qo‘qonning ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirishda turli janrdagi she’rlar muhim ahamiyat kasb etdi. Xalq boshiga tushgan musibatlar, qiyin ahvolda qolgan oddiy xalqning dardini demokratik adabiyot vakillari baralla kuylashdi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘qituvchi, T.:1975, B.58
2. Baxtin, M. Эстетика словесного творчестаю Москва: Искуства. 1979.
3. Valixo‘jayev B. Adabiyotshunoslik tarixi. –T., O‘zbekston. 1993.B.124
4. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –T.,Fan,1961. B.34
5. Abdullayeva D. Usmonxo‘ja Zoriy hayoti va ijodi. Fil.f.n.diss. O‘z R.FA. A.Nav. –T.: 2003. –B.34
6. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. –Т., Маънавият, 2004. -Б. 3.
7. Pardayev Q. Muqimiy she’riyatining matn tarixi,tahriri va talqini. Fil.f.d.diss. 2020 .–B.290, 340
8. Turkiston viloyatining gazetasi. 1903, 3-son
9. Muqimiy. Bog‘ aro. Akademnashr, 2010. –B.218.
10. Ibrohim Haqqul. Qit’a va g‘azal muhokamasiga doir.“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali , 1978, 6-son
11. Adabiy tur va janrlar. 3 jildli.2-jild.Lirika. –T.,Fan, 1992. –B.193.